



AGROMATNLARDA KO‘RSATISH MAYDONI VA KO‘RSATISH HODISASINING LINGVISTIK TAHLILI

Bozorova Munisa Mamadiyor qizi

SamDCHTI doktoranti

bozorova-m@mailsamdchti.uz

+998979208380

Annotatsiya. Mazkur maqolada pragmalingvistikadagi deyksis hodisasining agromatlarda ko‘rsatish maydonini hosil qilishdagi ahamiyati hamda vazifalari qishloq xo‘jaligiga oid ingliz va o‘zbek tilidagi ilmiy matnlar misolida ko‘rsatib berilgan. Agromatlardagi deytik markazni hosil qilishda ishlatilgan vositalar tahlili keltirilib, ular asosida tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: agromatn, deyksis, ko‘rsatish maydoni, diskurs deytik markaz, makon deyksisi, zamon deyksisi.

Abstract. In this paper the author discussed - one the main phenomenon of pragmalinguistics the deixis and its role of creating deictic shift in agricultural texts in English and in Uzbek. The main features of deictic shift using deictic words are shown with the help of the scientific materials taken from scholarly articles and thesis. The pragmatic and cognitive analysis have been provided and the results have been given.

Key words: agricultural text, deixis, indicating area, discourse, deictic center, spatial deixis, temporal deixis.

Аннотация. В данной статье автор рассмотрел одно из основных явлений прагмалингвистики - дейксис и его роль в создании дейктического переноса в сельскохозяйственных текстах на английском и узбекском языках. Основные особенности дейктического центра с использованием дейктических слов показаны с помощью научных материалов, взятых из научных статей и диссертаций. Проведен прагматический и когнитивный анализ и приведены результаты.

Ключевые слова: сельскохозяйственный текст, дейксис, область указания, дискурс, дейктический центр, пространственный дейксис, темпоральный дейксис.

Переведено с помощью DeepL.com (бесплатная версия)

KIRISH

Tilshunoslikning asosiy o‘rganish sohalaridan biri bo‘lgan pragmatika hozirgi kunda juda ko‘plab tadqiqot olib borilayotgan soha hisoblanib, pragmalingvistikaning bir bo‘lagi bo‘lgan

deyxisis hodisasi va uning ifodalanish xususiyatlari turli xil matnlar va nutq vaziyatlarida o‘rganilmoqda. Tilshunoslar faqatgina adabiy tilda mavjud hodisalarni emas, balki ayni ma’lum sohalarga tegishli bo‘lgan matnlarda deyxisisning o‘rganilishi ham dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlar ham o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turadi.[8] “Deyxisis” so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, “ko‘rsatish, ishora qilish” degan ma’nolarni beradi.[5] Deyxisisning til va nutq o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarishini Layonz va Stivensonlar ta’kidlab o‘tishgan.[4] Agromatnlarda ham ko‘rsatish hodisasining ifodalanishi va deyktik markazning joylashishi haqida mazkur maqolada misollar yordamida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Deyxisis til orqali "ishora" degan ma'noni anglatib, ushbu "ishora"ni amalga oshirish uchun ishlatiladigan har qanday lingvistik shakl deyktik ifoda deyiladi.[7] Deyxisisning asosiy funksiyasi bo‘lgan ko‘rsatish haqida Kravchenko” “Ko‘rsatish umuman til tizimining universal xususiyatidir” deb aytgan edi.[9] Deyxisisning indeksikal origo atrofida birlashadi degan fikrini keltirib o‘tgan K.Byullarning fikrlariga qo‘shilgan holda J.Layonz deyxisis hodisasini egosentrik deya ta’riflab, uni uch qismdan tashkil topgan deb beradi: 1- So‘zlovchi shaxs, 2. So‘zlovchining gapidan anglanayotgan - vaqt; 3. So‘zlovchi gapirayotgan joyga nisbatan- makon.[3] Tilshunos Yan Huang ham bu fikrga qo‘shimcha qilib, deyktik markazda “I-here- now” turadi deb ta’kidlagan.[2] Narrativ tuzilmalardagi deyktik birliklarning ko‘rsatish maydoni haqida ish olib borgan tilshunos olim J.Rapapaport esa o‘quvchi deyktik maydonni va ko‘rsatilayotgan yoki ishora qilinayotgan shaxs, vaqt va joyni aniqlash uchun e’tiborli bo‘lsagina tushunarli bo‘lishini aytib o‘tgan. Gamburg va Banfildlar hikoya qiluvchi muallif o‘zi hikoya markazida turmasa ham deyktik maydonni yarata oladi deb fikr bildirishgan.[6] Mazkur maqolada biz qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlarda deyktik vositalarning ko‘rsatish maydonini hosil qilishdagi ahamiyati va uning lisoniy vositalarini aniqlash uchun ingliz va o‘zbek tilidagi ilmiy maqolalardan, o‘quv adabiyotlaridan foydalandik. Tahlil jaryonida misollarni tasniflash, guruhlash, deskriptiv tahlil va chog‘ishtirma usullaridan foydalandik.

NATIJALAR

Agromatnlarda ishlatilgan deyktik vositalar agromatnlardagi ko‘rsatish maydonini yaratuvchi vositalari sirasiga kiradi. Agromatnlarda markaziy so‘zlovchi sifatida so‘zlovchi shaxs menmi ko‘pgina holatlarda “we”- “biz” orqali (1) (2) ifodalanadi. Deyktik markazning boshqa shaxsga ko‘chishi odatda atoqli otlar vositasida berilsa, ko‘rsatish maydoni markazida qoldirishni anaforik ko‘rsatish orqali (3) (4) bajariladi. Ko‘rsatish maydoni markazidagi makonni aniqlash vazifasini, o‘zbek tilida “bu”, “shu” olmoshlari (5) bajarsa, ingliz tilida bu vazifani “here” ravishi (7) vositasida ifodalanadi. Biroq ko‘pgina holatlarda markaziy vaqtni ko‘rsatish muallif tomonidan amalga oshirilganligi sababli, ayni muallif ishora qilayotgan vaqtga nisbatan “now” (8) va “hozirda” (9) ravishlarini deyktik vosita sifatida qo‘llash uchraydi. Agromatnlarga xos holatlardan yana biri bu diskurs deyxisisining ifodalanishi bo‘lib, muallif o‘quvchini matnning ayni bir qismiga yo‘nalitirish orqali deyktik markazni o‘zgartiradi. Bu holatda “these” ko‘rsatish olmoshi hamda “quyidagi” iboralari deyktik markazni o‘rnatuvchi

bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari agromatnlardagi annotatsiya qismlarida uchraydigan “this” (10) va “bu”, “ushbu” olmoshlari vositasida muallif o‘quvchini o‘zining ilmiy ishlariga ko‘rsatkich havola sifatida foydalanadi.

MUHOKAMA

Matndagi ko‘rsatish maydonini aniqlash uchun dastlabki matnning KIM tomonidan yozilganligi, QACHON- ya’ni matn davomida belgilanayotgan vaqtni aniqlash va QAYERDA – muallif tomonidan berilgan makonni belgilash asosiy e’tiborga olinishi zarur. Deyktik markazning matnlar ichida belgilanishini aniqlash uchun Rapapaport quyidagilarga e’tibor berish lozimligini keltirib o‘tgan edi. 1) deyktik markazdagi obyektlar va hodisalar kognitiv jihatdan nisbatan faol (ularni matndagi boshqa obyektlarga qaraganda ancha oson nomlash mumkin; 2) deyktik markazning ayrim jihatlari matn ichida yashirin tarzda ham kelishi mumkin va ularni ellipsis hodisasi kabi istisno qilib chiqarib yuborish ham mumkin; 3) matndagi atamalar va ularning qo‘llash imkoniyati odatda deyktik markaz tomonidan cheklangan holatda bo‘ladi. Agromatnlarda muallif gaplarni ko‘proq qo‘shma gap tarzida berganligi tufayli, unda deyktik markazni o‘rnatilishi ko‘pincha asosiy gap tarkibiga yuklanadi. Agromatnlarda shaxs deysini KIMni ishora qilish uchun ko‘rsatish maydoni markazida olib kelish uchun ko‘pincha atoqli otlardan yoki kishilik olmoshlaridan foydalaniladi:

1)To explore some of the tradeoffs that may be present under climate change we incorporate the profitability of changing the cropping system or adapting management to new climatic conditions (Climate smart agriculture p 182)

2)Biz qishloq xo‘jaligida innovatsion rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi sifatida sohada intellektual mulk huquqlariga talabnomalar sonini va ITTKI ga xarajatlar tarkibi va hajmini tahlil qildik. (5-6-oktabr respublika konferensiyasi to‘plami TDAU_SF 17)

Yuqorida berilgan misollarda (1) (2) deyktik markazni belgilash vazifasini ingliz va o‘zbek tilida “we”- “biz” olmoshlari vositasida berilgan bo‘lib, ikkala misolda ham muallif o‘zining ilmiy ishni bajaryotganligini o‘quvchiga bildirib kelmoqda. Ilmiy matnlarga xos uslubga ko‘ra, muallifni yakka qilib “I”- “men” tarzida ifodalamaslik holatlari mavjud. Shu sababdan ham muallifni ko‘plik tarzidagi kishilik olmoshlari bilan berish eksklyuzivlikni emas, balki inklyuziv ko‘plikni bildiradi.

Ko‘rsatish maydonidagi deyktik markzani o‘rnatishni atoqli otlar yordamida amalga oshirilganda, uning deyktik markzada qoldirilishiga anaforik holatda keluvchi kishilik olmoshlari ko‘makchi bo‘ladi:

3)According to Docherty and Giannini (2009), there is an urgent need to develop innovative approaches to address the climate change refugee problem. They call for a new legal instrument that will establish the human rights of climate refugees, mechanisms for humanitarian aid, and develop criteria to share the burden of relocating climate refugees, as well as financing the relocation efforts. (Climate smart agriculture p 61)

4) *Orxideya* suratlari va uning spirtlangan nusxasi Qirollik botanika bog‘i ilmiy xodimi Yoxan Xermans tomonidan o‘rganib chiqildi. U *Cynorkis christae* nomini olgan o‘simlik ilmiy uchun yangi ekanini tasdiqladi. (Agroilm 5(68) son 2020 46)

Ingliz tilidagi berilgan misolda deytik maydon markaziga keltirilgan shaxs “*Docherty and Glannini*” atoqli ot sifatida kelgan bo‘lib, uning ko‘rsatish maydonida qolishini ta‘minlagan vosita bo‘lib, “*They*” olmoshi unga ko‘rsatuvchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbek tilida keltirilgan misolda (4) muallif deytik markazga keltirilgan shaxsni ifodalash uchun “*Yoxan Xermans*” atoqli otidan foydalangan bo‘lsa, keyingi o‘rinlarda uni “u” kishilik olmoshi vositasida ko‘rsatish maydoni markazida ushlab qolinadi.

Badiiy matnlarda makonni belgilashga xizmat qiluvchi vositalar juda ko‘p bo‘lib, ular sirasiga o‘rin joy ravishlari, ravish ergash gapli qo‘shma gaplar yordamida ifodalanadi. Agromatnlar tarkibida makonni, QAYERni ko‘rsatish maydoni markaziga keltirish uchun joy nomlarini bildiruvchi otlar hamda o‘rin joy ravishlaridan foydalaniladi:

5) *Shu sababli ham lalmi ekin yerlarining qaysi mintaqaga joylashganligiga va bu yerda qanday ekinlar yetishtirilishiga qarab eroziyaga qarshi tadbirlarni joriy etish yaxshi samara beradi.* (Agroilm 5(68) son 2020 81)

Yuqorida berilgan misolda (5) “lalmi ekin yerlar” birikmasi bilan deytik markza belgilangan bo‘lsa, uning markazda qoldirilishiga ko‘makchi bo‘lib “bu yerda” birikmasi qo‘llanilgan.

6) *The terminology relating to genetic resources is in a state of flux. Here we use germplasm to denote the totality of genes and genetic combinations found in a species, oi a major portion of it.* (Crop ecology 81)

Ingliz tilidagi o‘rin ravishi “here” aniq bir belgilangan makonni emas, balki matn ichidagi aniq bir makonga ishora qilishi bilan ajralib turadi. Muallif bunda o‘quvchining qiddatini ayni shu makonga diqqatini jalb qilish uchun “here” ravishidan foydalanilgan (6). Bunda matnning ayni bir qismiga ishorani keltirish mumkin.

Narrativ matnlarda, hikoya jarayonlarida zamonni ko‘rsatuvchi vositalar sirasiga ayni fe‘l zamonlari, payt ravishlari kiritilsa, ilmiy matnlarda xususan, agromatnlarda ham shu kabi deytik belgilardan foydalanish mumkin:

7) *Legume-cereal rotations of the eighteenth century provide the model for these organic farming practices that are often now promoted without appreciation of their low productivity* (Crop ecology 25)

8) *Hozirda* suv omborlaridan foydalanishdagi asosiy muammo – mazkur inshootlar yuqori b‘eqlari foydali sig‘imlarining loyqa cho‘kindilar cho‘kishi evaziga qisqarib borishidir. (Agroilm 5(68) son 2020 62)

Keltirilgan misollarda (7) (8) deytik markazdagi QACHONni ifodalashni “now” (17) hamda “hozirda” ravishlari bajargan, ular muallifning bajarayotgan ilmiy faoliyatiga nisbatan, ya‘ni u belgilab bergan vaqtga qiyosan barchani shu zamonga yo‘naltiradi. Shu munosabat bilan real vaqtdagi “hozir- now” deytik ko‘rsatishi bilan matn tarkibidagi ko‘rsatish farqlanadi.

Bundan tashqari mualliflar agromatnda umumiy holatda hozirgi zamon shaklidan foydalanishadi, adabiyotlar tahlilida ko‘proq o‘tgan zamon bilan vaqtga ishorani ko‘rishimiz mumkin.

Agromatnlar tarkibida eng ko‘p uchraydigan holat diskurs deyksisi bo‘lib, bunda muallif o‘quvchini matn ichidagi joyga ishora qilishi bilan ajralib turadi:

8) *The empirical case studies in these chapters cover lessons that have analyzed responses to climate change thus far and their implications for innovation, including technology adoption and adaptation, insurance schemes, and diversification of land and labor, and to a lesser extent internal migration. (Climate smart agriculture p53)*

9) *Quyida dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. (Z.Z.Abdushukurova O‘zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi o‘quv qo‘llanma 40)*

Berilgan misollarda mualliflar “these chapters” (8) birikmasi orqali o‘zi ma’lumot berib o‘tgan qism haqida ma’lumot berib, undagi mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni qisqacha ko‘rsatkich qilib ishora qilmoqda. Keyingi keltirilgan misolda (9) muallifning endi beradigan ma’lumotlarga o‘quvchining diqqatini jalb qilish, deytik markzani o‘rnatish maqsadida “quyida” deytik iborasidan foydalangan. Bundan tashqari ilmiy asararning annotatsiyasida muallif o‘z ilmiy ishining umumiy ma’lumotini berish holatida “ushbu”, “mazkur” kabi so‘zlardan ingliz tilida esa “this” olmoshidan diskurs deyksisi sifatida foydalanish holatlari uchraydi:

10) *Ushbu maqolada dukkakli ekinlardan no‘xat o‘simligining bo‘yining o‘sishini ekish muddatlari va sxemasiga bog‘liqligi bayon etilgan (5-6-oktabr respublika konferensiyasi to‘plami TDAU_SF 353)*

11) *In this paper, we have comprehensively reviewed the sugarcane’s phytochemical and microbial diversity. (Journal of agriculture and food research 12 2023 100549 9)*

Keltirilgan ikkala misolda ham (10) (11) muallif o‘zi bajargan tadqiqot ishiga qisqacha ma’lumot bergan holatda ko‘rsatish maydonining markaziga “this” olmoshi (11) hamda “ushbu” olmoshi vositasida deytik ko‘rsatishni amalga oshirgan. Agromatnlar tarkibidagi bu kabi holatlar ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda o‘quv adabiyotlarining kirish qismlarida uchraydi.

XULOSA

Deytik vositalar va ular vositasida ko‘rsatishni o‘rganish pragmlingvistikada bundan tashqari kognitiv lingvistikada muhim o‘rinni egallaydi. Deytik markazni tashkil qiluvchi vositalarga kiruvchi birliklar badiiy adabiyotdan farqli ravishda ilmiy matnlarda miqdori cheklangan bo‘lib, xususan, qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlarda bu hodisa faqatgina muallif nuqtayi nazaridan ko‘riladi. Shaxsni ko‘rsatish maydoniga olib chiqish va uni deytik markazda qoldirishni muallif vositasida atoqli otlar hamda kishilik olmoshlari bajaradi. Makon va zamoni deytik markazda olib qoluvchi vositalarga ega ko‘proq ravishlarni hamda ko‘rsatish olmoshlarini kiritamiz. Agromatnlarda eng mahsuldor hisoblanuvchi diskurs deysksisi esa

matnni kerakli qismlariga ishorani ta'minlab, o'quvchining diqqatini jalb qilibgina qolmasda, annotatsiya qismida kelib butun bir ilmiy ishiga ishora vazifasini ham bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bühler, K. (1990). *Theory of Language: The representational function of language*. Amsterdam: John Benjamins.
2. Huang Yang *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 367p.
3. Lyons, J. (1977). Ch. 15: Deixis, space and time. In *Semantics*, Vol 2. Cambridge: Cambridge University Press, 636-724.
4. Levinson, S. C. (2004). Deixis. In L.R. Horn & G. Ward (eds.), *The Handbook of Pragmatics*. Malden, MA, USA/Oxford, UK/Carlton, Australia: Blackwell Publishing, 97-121
5. Munisa Bozorova. (2024) "PRAGMATIC FACTORS OF INDEXICALITY IN AGRICULTURAL TEXTS IN UZBEK AND ENGLISH." *American Journal of Philological Sciences* 4.11: 169-178.
6. William J. Rapaport (1994) *Deictic Centers and the Cognitive Structure of Narrative Comprehension* Center for Cognitive Science State University of New York at Buffalo 35p.
7. Yule G. (1996) *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press 138p.
8. Бозорова, М. (2024). Ingliz va o'zbek qishloq xo'jaligiga oid matnlarida shaxs deysisining ifodalanishi. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1), 148-156.
9. Кравченко А.В. (1995) *Принципы теории указательности*: авт. дис...док. филол. наук /– Москва 54 с.